



## XO`JALIK YURITUVCHI KORXONALARDA INVENTAR VA XO`JALIK JIHOZLARI HISOBINI YURITISH

### Qo`zimurodova Sabohat Mamatmuso qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
3 – bosqich “Buxgalteriya hisobi va audit” yo`nalishi talabasi  
email: sqozimurodova@gmail.com  
tel:+998970756535

### Qulsaxatova Sevara Bahrom qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
3 – bosqich “Iqtisodiyot” yo`nalishi talabasi  
email: ecnmst1@gmail.com  
tel:+998938478883

### To`xtayeva Bahor Rashid qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
3- bosqich “Bank ishi va audit” yo`nalishi talabasi  
email:bahortoxtayeva@gmail.com  
tel:+998904250434  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7659607>

#### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-fevral 2023 yil  
Ma`qullandi: 16-fevral 2023 yil  
Nashr qilindi: 21-fevral 2023 yil

#### KEY WORDS

*Inventar va xo`jalik jihozlari, BXMS, xo`jalik subektlari, buydjet tizimi, kirim, chiqim, Tovar-moddiy zaxiralari, 4-sonli BXMS, schyotlar rejasi, subschyotlar, inventarizatsiya.*

#### ABSTRACT

*Ushbu maqolada korxonalarda inventar va xo`jalik jihozlari hisobini to`g`ri yuritish va ulardan oqilona tarzda foydalanishga asoslanadi. Inventar va xo`jalik jihozlari muhim ahamiyat kasb etadi va ular buxgalteriya schyotla rejasida umumiy bo`linma “Tovar-moddiy zaxiralar hisobi” ichida yuritiladi va uni kiringa olish xususiyatlari haqida ma`lumotlar keltiriladi. Inventar va xo`jalik jihozlari harakati va ularning tugatilishi ya`ni hisobdan chiqarilishi, inventarizatsiya, kamomad va oshishning jarayonlari yoritib berilgan. Bu maqolaning maqsadi esa hali amaliyotga endi kelgan buxgalterlarni Inventar va xo`jalik jihozlari bilan tanishtirish, ish olib borish bo`yicha tavsiyalarni olib chiqishdan iborat.*

O`zbekistonning mustaqil yuksalish mobaynida qilingan ishlarni sarhisob qiladigan bo`lsak, ulkan yutuqlar qo`lga kiritilganligining guvohi bo`lamiz. Shuningdek, “Buxgalteriya hisobi” sohasida ham keying yillarda O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O`zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo`mitasi hamda O`zbekiston Respublikasi buxgalterlari va auditorlari milliy assotsiatsiyasi tomonidan buxgalteriya hisobining tamoyillarini rivojlantirish maqsadida bir qator ibratli ishlar amalga oshirilmoqda. Buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi qonunlar qabul qilinishi, ular bo`yicha xalqaro talablarga javob beradigan standartlar va boshqa me`yoriy hujjatlar yaratilishi va mavjudlari xalqaro standartlarga moslashtirilishi, vatanimizning jahon iqtisodiyotiga integrallashuvida katta ahamiyat kasb etadi.

Har bir xo'jalik yurituvchi subyekt o'z harakati doirasida va uning ta'sirida rivojlanishi, qayta tashkil etilishi yoki bankrot bo'lishi mumkin. Hozirgi kunda tashkil etilgan korxonalar yoki firma qatorida o'z faoliyatini to'xtatayotganlari ham uchrab turibdi. Bunga asosiy sabab raqobatdir. Raqobat- o'zgaruvchanlikni, harakatchanlikni va yangilikni talab qiladi. Raqobatga bardosh berolmagan korxonalar o'rnini boshqa shunday korxonalar band qilishadi. Hozirgi kunda buxgalteriya hisobi ishlarini tashkil qilishga qo'yilgan eng asosiy talab – bu, uning kam xarajatli va sodda bo'lishidir. Korxonada hisob ishlari ana shunday tashkil etilgandagina, buxgalteriya hisobi yuqori samaraga hamda yaxshi natijalarga erishishi mumkin. Buning uchun eng avvalo, har bir korxonaning o'ziga xos tarmoq xususiyatlarini va boshqa jihatlarini chuqur o'rganish lozim. Hozirgi xo'jalik yuritish sharoitida ishlab chiqarish korxonalarining bosh vazifasi turmush farovonligini yanada ko'tarish, ijtimoiy ishlab chiqarish, o'sib borish, xalq xo'jaligini jadal rivojlantirish yo'li bilan mehnat unumdorligini oshirish, milliy daromadni o'stirishdan iborat. Mehnat va ish haqini hisoblash hisob ishlarining aniq va tezkor ma'lumotlar talab qiluvchi eng muhim va qiyin sohalaridan biridir bugun siz bilan birgalikda to'xtaladigan mavzuyimiz korxonada muhim ahamiyat kasb etadigan elementlardan biri bu- Inventar va xo'jalik jihozlari hisobidir. Korxonada normal ishlashi uchun bino, asbob-uskunalar, dastgohlar, xomashyo va hokozolar bo'lishi kerak. Bu mulkning barchasi asosiy vositalar va tovar-moddiy zaxiralarga bo'linadi. Ushbu zaxiralar korxonadagi barcha boshqa mulklar singari hisobga olinishi kerak demak ularni hisobga oladigan alohida bo'lim bor. Aynan bu bo'lim bizda inventar va xo'jalik jihozlari hisobi deb yuritiladi. Inventar va xo'jalik jihozlari tarkibiga nima kiradi? O'zbekistonda inventar va xo'jalik jihozlari hisobga olish qoidalari? Xo'jalik operatsiyalar hisobda qanday aks ettiriladi? kabi savollarga biz 4-sonli BHMSning 6-bandiga dan javob topishimiz mumkin bunga binoan tashkilot aktivlari inventar va xo'jalik buyumlariga kiritilishi uchun ular quyidagi talablarga javob berishi kerak: ishlatish muddati 1 yil; buyumning birlik yoki komplekt narxi sotib olish paytida eng kam ish haqining 50 baravaridan oshmasligi kerak. Bosh direktor korxonaning hisob siyosatiga o'zgartirish kiritish va ularni inventar tarkibiga kiritish uchun tovarlar tannarxining past chegarasini belgilash huquqiga ega. Inventar va xo'jalik jihozlarini qanday rasmiylashtirish va hisobga olish kerak Ishlatish vaqti va narxlaridan qat'i nazar inventar va xo'jalik buyumlari tarkibiga kiradigan tovarlar ro'yxati mavjud. Ro'yxat 4-sonli BHMSning 6-bandida keltirilgan, unga quyidagilar kiradi: Ommaviy yoki seriyali ishlab chiqarishda foydalaniladigan moslamalar va asboblari; Maxsus va sanitariya kiyimlari va poyabzallari; Ko'rpa-to'shak; Kanselyariya uskunalar; Stol choyshablari va oshxona anjomlari; Vaqtinchalik inshootlar va qurilmalar; Ishlatish muddati 1 yildan oshmaydigan vaqtinchalik uskunalar; Baliq ovlash uchun uskunalar. O'zbekistonda inventar va xo'jalik buyumlarini hisobga olish qoidalari Inventar va xo'jalik buyumlari bilan bog'liq barcha operatsiyalar va ularning hisobi 1080-schyotda yuritiladi. Milliy standart qoidalariga ko'ra inventar foydalanishga o'tkazilishi bilan oq uning butun qiymati ishlab chiqarish xarajatlari yoki davr xarajatlariga chiqariladi. Keyinchalik foydalanishga topshirilgan inventar va xo'jalik buyumlarini hisobga olish tartibi bo'lishi uchun ular balansdan tashqari schyotga o'tkaziladi. 014 "Ishlatilayotgan inventar va xo'jalik buyumlari" ana shunday schyot hisoblanadi. Inventar va xo'jalik buyumlarini foydalanishga topshirish to'g'risidagi akti qanday to'ldirish kerak? — Idishlarni buxgalteriya hisobida qayd etish — «Materiallar» 10-schyoti. O'zbekistonda materiallarning buxgalteriya hisobi Inventar va xo'jalik buyumlari narxi eng kam ish haqining 10 baravaridan oshganda ularni

foydalanishga topshirishda ushbu buyumlarning narxini kechiktirilgan to'lovlarga o'tkazish mumkin. Bu 3290 "Boshqa kechiktirilgan xarajatlar" schyoti. Inventar va xo'jalik jihozlarini foydalanishga topshirishda ularning qiymati vazifasiga qarab ishlab chiqarish xarajatlariga yoki davr xarajatlariga to'liq hisobdan chiqarilib, keyin tashkilot tomonidan oddiy shakl bo'yicha (bir tomonlama tartibda), tannarxi bo'yicha nomlar (nomenklatura raqamlar) yoki guruhlar (yiriklashtirilgan komplekslar) kesimida tezkor miqdoriy hisob yuritiladi, bunda foydalanishga kelib tushish sanasi (oy, yil) foydalanish joyi (bo'linmalar bo'yicha) va ulardan foydalanish muddati mobaynida moddiy javobgar shaxslar ko'rsatiladi. Inventar va xo'jalik jihozlarining qiymatini xarajatlarga hisobdan chiqarish usullaridan birini qo'llash inventar va xo'jalik jihozlaridan foydali ishlatishning butun muddati mobaynida amalga oshiriladi. Tashkilotning inventar va xo'jalik jihozlarini ta'mirlash hamda ularga xizmat ko'rsatish bo'yicha xarajatlari (masalan, maxsus asboblarni charxlash, alohida uzal va detallarni almashtirish va hokozalar) inventar va xo'jalik jihozlarining vazifasidan kelib chiqib ishlab chiqarish xarajatlari yoki davr xarajatlariga kiritiladi. Foydalanish jarayonida inventar va xo'jalik jihozlari tannarxini ularning alohida qismlarini almashtirish orqali o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi. Inventar va xo'jalik jihozlarining ayrim qismlarini almashtirish va ta'mirlash xarajatlari mazkur to'plamni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari sifatida belgilanadi. Foydalanishda bo'lgan, biroq keyinchalik o'z vazifasi bo'yicha foydalanilmayotgan inventar va xo'jalik jihozlari boshqa operatsion daromad sifatida realizatsiya qilishning sof qiymati bo'yicha kiritilishi mumkin. Bunda, ushbu inventar va xo'jalik jihozlari bo'yicha kechiktirilgan xarajatlarni hisobga oluvchi schotlarda summa qoldig'i bo'lsa, ular ham hisobot davrining xarajatlari sifatida moliyaviy natijalarga kiritiladi. Inventar va xo'jalik jihozlarining qiymatini ularni foydalanishga berish paytida to'liq ishlab chiqarish xarajatlariga yoki davr xarajatlariga hisobdan chiqarishda, foydalanishdagi inventar va xo'jalik jihozlarining keyinchalik saqlanishini ta'minlash maqsadida ularning hisobini sex omborchilari va alohida foydalanuvchilar bo'yicha balansdan tashqari schyotlarda yuritish lozim.

**Inventar va xo'jalik jihozlari harakati.** Inventarni ta'mirlash va unga texnik xizmat ko'rsatish uchun barcha xarajatlar ishlab chiqarish xarajatlari yoki davr xarajatlari sifatida qayd etiladi. Ba'zida ekspluatatsiya qilish vaqtida inventardan maqsadli foydalanilmaydi. Bunday holda, uning narxini boshqa operatsion xarajatlar hisobvarag'iga kiritish mumkin. Agar ushbu inventar bo'yicha kechiktirilgan xarajatlarni hisobga olish uchun hisobvaraqlarda qoldiq bo'lsa, u holda ularni hisobot davri xarajatlari shaklida moliyaviy natijaga o'tkazish kerak bo'ladi. Yuqoridagi barcha xususiyatlar tashkilotning hisob siyosatida aks ettirilishi kerak. Yuqorida aytib o'tganimizdek, inventar va xo'jalik buyumlari bilan bog'liq barcha operatsiyalar 1080 schyotida aks ettiriladi. Quyida inventar va xo'jalik buyumlari kiritilishi va hisobdan chiqarilishi bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalari qanday yozuvlar bilan aks ettirilishini ko'rib chiqamiz. Operatsiya ta'rifi Debet Kredit Yetkazib beruvchidan kiritilgan 1080 6010 "Yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanishi lozim bo'lgan hisobvaraqlar" Ekspluatatsiyaga o'tkazishda xarajatlarga hisobdan chiqarish 2010 "Asosiy ishlab chiqarish" 9420 "Ma'muriy xarajatlar" 1080 Kechiktirilgan xarajatlarga chiqarish 3290 "Boshqa kechiktirilgan xarajatlar" 1080 Kechiktirilgan xarajatlarning joriy xarajatlariga hisobdan chiqarish 2010 9420 3290 "Boshqa kechiktirilgan xarajatlar" Foydalanish uchun berilgan inventarni kiritilishi 014 "Foydalanilmayotgan inventar va xo'jalik buyumlari" 1080 Keyinchalik foydalanish uchun yaroqsiz holga kelganda hisobdan chiqarish 2010. O'rganish

jarayonida inventar va xo'jalik jihozini turini, markasini va boshqa ko'rsatkichlarni ularning buxgalteriya hisobidagi kirim hujjatlariga mos kelishini nazorat qilish (ayrim hollarda bir turdagi bahosi arzon inventarlarni, markasi va bahosi qimmatlariga almashtirib qo'yish holatlari kuzatiladi). 063 "Inventar va xo'jalik jihozlari" subschyotida tashkilotning kundalik ehtiyojlari uchun foydalaniladigan xo'jalik materiallari va kanselyariya buyumlari (elektr lampalari, sovun, cho'tka va h.k.), shuningdek, boshqa inventar va xo'jalik jihozlari hisobga olinadi. Inventar va xo'jalik jihozlarining hisobi moddiy javobgar shaxslar tomonidan buyumlarning nomi va miqdori bo'yicha M-17-son shakldagi materiallarning ombor hisobi daftarida yuritiladi. Bu buyumlarning ombordan berilishi 434-son shakldagi yuk-xati (talabnoma) bo'yicha amalga oshiriladi. Buyumlar ombordan berilayotganda tashkilotning, bo'limning nomi, foydalanishga topshirilgan yili va oyi ko'rsatilgan markirovkali shtamp qo'yiladi. Markirovka bo'yoq (yuvganda va kimyoviy vositalar ta'sirida o'chmaydigan bo'lishi lozim) yordamida qilinadi yoki jeton bilan mahkamlanadi.

Inventar va xo'jalik anjomlarini foydalanishga topshirishda ularning qiymati vazifasiga qarab ishlab chiqarish xarajatlariga yoki davr xarajatlariga to'liq hisobdan chiqarilib, keyin tashkilot tomonidan oddiy shakl bo'yicha (bir tomonlama tartibda), tannarxi bo'yicha nomlar (nomenklatura raqamlari) yoki guruhlar (yiriklashtirilgan komplektlar) kesimida tezkor miqdoriy hisob yuritiladi, bunda foydalanishga kelib tushish sanasi (oy, yil), foydalanish joyi (bo'linmalar bo'yicha) va ulardan foydalanish muddati mobaynida moddiy javobgar shaxslar ko'rsatiladi. Agar inventar va xo'jalik anjomlarining qiymati bir birlik (komplekt) uchun xarid qilish paytida O'zbekiston Respublikasida belgilangan eng kam ish haqining o'n baravaridan ortiq bo'lsa, unda tashkilot ularni foydalanishga berishda ushbu inventar va xo'jalik anjomlarining qiymatini muddati kechiktirilgan xarajatlarga kiritishi mumkin. Bunda kechiktirilgan xarajatlarni kamaytirish, ya'ni ularni xarajatlarga hisobdan chiqarish quyidagi usullardan birini qo'llash orqali amalga oshiriladi:

a) qiymatni ishlab chiqarilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar)

hajmiga mutanosib ravishda hisobdan chiqarish;

b) teng me'yorli tarzda.

Inventar va xo'jalik anjomlarini foydalanishga topshirishda ularning qiymati vazifasiga qarab ishlab chiqarish xarajatlariga yoki davr xarajatlariga to'liq hisobdan chiqarilib, keyin tashkilot tomonidan oddiy shakl bo'yicha (bir tomonlama tartibda), tannarxi bo'yicha nomlar (nomenklatura raqamlari) yoki guruhlar (yiriklashtirilgan komplektlar) kesimida tezkor miqdoriy hisob yuritiladi, bunda foydalanishga kelib tushish sanasi (oy, yil), foydalanish joyi (bo'linmalar bo'yicha) va ulardan foydalanish muddati mobaynida moddiy javobgar shaxslar ko'rsatiladi. Agar inventar va xo'jalik anjomlarining qiymati bir birlik (komplekt) uchun xarid qilish paytida O'zbekiston Respublikasida belgilangan eng kam ish haqining o'n baravaridan ortiq bo'lsa, unda tashkilot ularni foydalanishga berishda ushbu inventar va xo'jalik anjomlarining qiymatini muddati kechiktirilgan xarajatlarga kiritishi mumkin. Bunda kechiktirilgan xarajatlarni kamaytirish, ya'ni ularni xarajatlarga hisobdan chiqarish quyidagi usullardan birini qo'llash orqali amalga oshiriladi:

a) qiymatni ishlab chiqarilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar)

hajmiga mutanosib ravishda hisobdan chiqarish;

b) teng me'yorli tarzda.

**II.3. Inventar va xo'jalik jihozlarini hisobdan chiqarish.** Inventar va xo'jalik jihozlari

qiymatining ularni foydalanishga berishda hisobdan chiqarish tartibi, shuningdek, ularning qiymatini xarajatlarga kiritishning foydalanilayotgan usuli tashkilotning hisob siyosatida aks ettirilishi lozim. Inventar va xo'jalik jihozlarini qiymatini balansdan tashqari hisobvaraqlardan chiqarish u haqiqatda hisobdan chiqarilganda va birlamchi hisob hujjatlar bilan tasdiqlangan taqdirdaagina amalga oshiriladi. Tovar-moddiy boyliklar va uy-ro'zg'or buyumlari buxgalteriya hisobida asosiy vositalar yoki inventarizatsiya Muayyan guruhga tegishli bo'lish operatsiya davriga bog'liq. Agar foydalanish muddati bir yil yoki undan ko'p bo'lsa, inventarizatsiya asosiy vositalarning bir qismi sifatida hisobga olinishi kerak, agar kamroq bo'lsa, bu inventardir. Bunday inventarning xizmat qilish muddati ro'yxatga olish paytida muassasaning buyrug'i bilan belgilanadi. Kechiktirilgan xarajatlar ikki usulda bilan hisobdan chiqarilishi mumkin: Qiymatni hisobdan chiqarish chiqarilgan mahsulot yoki xizmat hajmiga mutanosibdir; Teng. Birinchi usul shundan iboratki, muayyan davrdagi chiqariladigan mahsulot hajmlarining ko'rsatkichlaridan va ko'rsatilgan inventarning butun taxmin qilingan davri uchun chiqariladigan mahsulot soniga nisbatan inventar tannarxining qiymatidan kelib chiqqan holda inventar summasi hisobdan chiqariladi. Ikkinchi usulda inventar qiymatidan va ushbu inventardan foydali foydalanish muddatlaridan kelib chiqib hisoblangan muayyan normalarga asosan qiymat hisobdan chiqariladi. Yuqorida ko'rsatilgan hisobdan chiqarish usullari inventardan foydali foydalaniladigan butun davrda kuchga ega. Hisobdan chiqarishning 2 turi mavjud bo'lib ular:

1. Qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) hajmiga mutanosib ravishda hisobdan chiqarish;
2. Teng me'yorda.

Qiymatni ishlab chiqarilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) hajmiga mutanosib ravishda hisobdan chiqarish usulida kechiktirilgan xarajatlar summasini hisobdan chiqarish hisobot davrida ishlab chiqarilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) hajmining natural ko'rsatkichidan va inventar hamda xo'jalik jihozlari tannarxining ko'rsatilgan inventar va xo'jalik jihozlarini foydali ishlashitishning butun kutilayotgan muddatida mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarishning taxmin qilinayotgan hajmiga nisbatidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Agar mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish muddatidan avval to'xtatilgan va uni tiklash kutilmayotgan bo'lsa, kechiktirilgan xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlarda hisobga olinadigan inventar va xo'jalik jihozlarining qoldiq qiymati ( inventar va xo'jalik jihozlari qiymatining hisobdan chiqarilmagan miqdori qoldig'i) tashkilotning moliyaviy natijalariga boshqa operatsion xarajatlar sifatida hisobdan chiqariladi.

**Inventar va xo'jalik jihozlari inventarizatsiya qilinishi, kamomad va oshishning xususiyatlari.** Inventarizatsiya haqida tushuncha, uni ahamiyati va turlari. Korxonada mavjud bo'lgan mulkliklar saqlanishini ta'minlash, ular nazoratini yaxshilash maqsadida, yuritilayotgan hisob ma'lumotlari nechog'lik xaqiqiyiligi, to'g'riligini tekshirish maqsadida inventarizatsiya o'tkaziladi. Inventarizatsiya - korxonada mablag'ini tekshirib, ro'yxatga olish va olingan ma'lumotlarni hisob ma'lumotlari bilan solishtirish demakdir.

Rejasiz inventarizatsiya esa, quyidagi hollarda o'tkaziladi:

1. moddiy javobgar shaxs o'zgarganda;
2. moddiy javobgarlikning brigada usulida: a) 50 % brigada a'zolari o'zgarganida; b) brigada boshligi o'zgarganida;
3. yong'in, tabiiy ofatlar ro'y berganda, ular tugatilgan zahoti;

4. o'g'irlik hisobot ma'lumot olingan zahoti;
5. mulkchilik shakli o'zgarganda;
6. inventarizatsiya o'tkazilishi hisobot moddiy javobgarlik brigada a'zolaridan ariza olinganda;
7. boyliklar buzilishi aniqlanganda;
8. boyliklar qayta baholanishi amalga oshirilganda;
9. asosiy vositalar ijarasi ro'y berganda (asosiy vositalar inventarizatsiyasi);
10. korxonaga tugatilayotganda

Inventarizatsiya qilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi: 1. To'liq; 2. Qisman.

To'liq inventarizatsiyada korxonaga mulklarining barchasi inventarizatsiya qilinadi. Bunday inventarizatsiya 1 yilda bir bor o'tkazilishi shart. (yillik hisobot tuzilishidan oldin). Qisman inventarizatsiya korxonaga mulklarining ma'lum bir qismigina inventarizatsiya ob'ekti bo'lishi bilan xususiyatlidir.

Inventarizatsiya xo'jalik jihozlari ham yuqoridagilar asosida o'zining belgilangan muddatida inventarizatsiyadan o'tkaziladi.

Inventarizatsiya natijasida quyidagilar aniqlanadi:

1. Hisob va inventarizatsiya ma'lumotlari teng;
2. Hisob ma'lumotlaridan inventarizatsiya natijasida aniqlangan ma'lumotlar yuqoriligi (ortiqcha xo'jalik mablag'lari aniqlanishi).
3. Hisob ma'lumotlari ko'rsatkichlari yuqoriligi: (xo'jalik mulklari etishmovchiligi aniqlanishi)

**XULOSA.** Xulosa qilib shuni aytish joizki, Inventarizatsiya va xo'jalik jihozlari bu korxonada muhim ahamiyat kasb etadi va bu maqolaning maqsadi buxgalterlarni inventarlarning nazariyasi bilan tanishtirish deb olindi. Buxgalterlar qiladigan katta xatolardan biri bu inventarlarni asosiy vositalar bilan adashtirib qoyishlaridadir va bu masalani biz ushbu maqola orqali yuqoridagi malumotlar asosida bartaraf bo'lishiga ishonamiz. Buxgalterlar nazariy va amaliy bilimlarini bir meyorda olib borsalar maqsadga muvofiq bo'ladi. Buxgalterlarimizning yana bir xatolaridan biri bu buxgalteriya ishini dastur olib boradi, dasturni o'rgansak bo'ldi deb o'ylashlarida hurmatli buxgalterlar buxgalteriya ishini olib borishga dasturning o'zini bilish kamlik qiladi va ularga nazariyalar bilan tanishish yoki mana shunaqa mavzulashtirilgan maqolalar bilan tanishishni tavsiya berib qolardik. E'tiborlaringiz uchun tashakkur!

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi Milliy standartlari to'plami Toshkent-2022 yil/ 26.07.1998 yil 17-07/86-son
2. Moliyaviy hisob va hisobot Toshkent "Iqtisodiyot-Moliya"2019 Karimov A.A, Kuranbayev J.E, Jumanazarov S.A -T.: "IQTISODIY-MOLIYA",2019 -400 bet
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi T.:O'zbekiston,2016
4. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni 2016-yil 13-aprel.
5. O'Zr VM ning 19.06.2015 yildagi 164-son qarori
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.12.2017 yildagi PQ-3454-son qarori
7. www.gov.uz. (O'zbekiston Respublikasi hukumat portali)
8. www.mf.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti)
9. www.ziyonet.uz (Axborot ta'lim tarmog'i)
10. www.lex.uz (O'z.R. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi)